Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari.....	787
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati	793
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
<i>Yusupova Madinajon Mansurbek qizi</i>	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения	799
<i>Заболотина Анна Анатольевна</i>	
Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi	802
<i>Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna</i>	
Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq masalalarining falsafiy va tarbiyaviy talqini	807
<i>Ahadova Feruzaxon Akmaljon qizi, Usmonova Sofiyaxon</i>	
Globalashuv sharoitida ayollar ruhiy salomatligini saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	810
<i>Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi.....	814
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonsova Marjona G'ulomovna</i>	
Maktabgacha ta'limda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda teatr texnologiyalarining qo'llanilishi	819
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Sharobiddinova Shahzoda Doniyorbek qizi</i>	
Talabalarda agressiv xatti-harakatlar shakllanishining omillari	823
<i>Sa'dullayeva Aziza Iskandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.....	829
<i>Farsaxonova Mastura Jalol qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni	836
<i>Kimsanov Jamshidbek Maxamatrasul o'g'li</i>	
O'qituvchilarda kasbiy so'nishning profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy-psixologik texnologiyalar	841
<i>Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi</i>	
Ta'limning raqamli modifikatsiyalari asosida talabalarining axborot mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar	846
<i>Xurramov Anvar Xudayshukurovich</i>	
O'zbek musiqiy merosining tarixiy-pedagogik rivojlanishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati	853
<i>Yuliyaxshiyev Sherali Narzullayevich</i>	
Учёт индивидуальных особенностей студентов национальных групп медицинского вуза в обучении русскому языку	857
<i>Мамаджанова Мохимир Рашидовна</i>	
Zamonaviy baholash texnologiyalari va xorijiy tajriba (boshlang'ich sinf "ona tili" darslari misolida).....	861
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	867
<i>Abdug'afforova Aziza Abdurashid qizi, Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi</i>	
Axborotni tanqidiy baholash asosida talabalarining mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	871
<i>Abdullajonova Nurzoda Nurmaxamadovna</i>	

Harbiy xizmatchilar faoliyatida professional kuyish sindromining oldini olish	874
<i>Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi</i>	
Plifunksional yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	879
<i>Abduraxmanova Mukaddam Mirsalikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik asoslari	883
<i>Barotova Huriyatxon Uzoq qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli	887
<i>G'ofurova Sh. M.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati	892
<i>Jovmirzayeva Nargiza Kuvondikovna</i>	
Talaba sportchilarning mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish xususiyatlari	895
<i>Matnazarov Anvar O'ktamovich, Jumonzarov Jaxongir Shixnazar o'g'li</i>	
Psixologik konsultatsiyada media ta'sirni inobatga olish zarurati	898
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Soft Tissue Control: In the Aesthetic Zone	901
<i>Murodkulov Samandar, Narziev Firdavs, Buzruksoda Javohir</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni.....	905
<i>N. T. Misirova, Xursanova Mohinur Abdujabbor qizi, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi</i>	
Klassik ustoz-shogird an'analari va ularni innovatsion ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari	910
<i>Raxmanova Nigora Xusanboyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari	914
<i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolari.....	918
<i>Shakirova Feruza Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga mo'ljallangan web platformalarning imkoniyatlari	922
<i>Shamsutdinov Fazliddin Axmadovich</i>	
Talabalarda virtual jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....	926
<i>Sodikova Odinaxon Abdugaprovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modellari ...	930
<i>Suyunova Nargiza Abdurashid qizi</i>	
G'ovlar orasidagi ritmik masofa tuzilishining sportchilarning musobaqadagi natijalariga ta'sirini tahlil qilish	934
<i>Talipov G'ulomojon Adiljanovich</i>	
Efficacy of a New Ointment for the Treatment and Prevention of Alveolitis.....	938
<i>Umarov Maruf, Abdurazzaqov Kamoliddin, Buzruksoda Javohir</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi	941
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonova Marjona G'ulomovna</i>	
Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	945
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
6-7 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish	949
<i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Ziyadullayeva Madina</i>	
Local Anesthesia and Conduction Anesthesia	952
<i>Zulfiya Makhmudovna, Buzruksoda Javohir</i>	
Современное состояние и проблемы подготовки педагогических кадров к инклюзивному образованию	957
<i>Плиева Руслана Владимировна</i>	



Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	962
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi logopat bolalarning emotsional intellektini shakllantirish usullari.....	966
Ro'ziqulova Zarina Yusupovna	
Sahnalashtirish va tasviriy faoliyat integratsiyasi – badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida	969
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Usmonaliyeva Yulduz Baxrom qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o'rni	974
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari.....	978
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Ro'zmetova Yulduz Odilbek qizi	
Ta'lim va ishlab chiqarish klasterining nazariy-asosiy jihatlari	983
Samadova Mahbuba Nutfullo qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyati jarayonida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	987
Kayumova Nargiza Mirziyatovna, Nozimjonova Xojiya Mo'minjon qizi	
15-16 yoshli taekvondochilar muvozanat saqlash turg'unligi va harakat aniqligining mashg'ulot jarayonlarida o'sish sur'ati.....	991
G. X. Ravshanov, A. X. Norov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suhandonlik to'garagining bolalar nutqi va kommunikativ rivojiga ta'siri..	997
Abduraximova Shaxnoza Alikulovna	
Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	1000
Asadova Nozima Abdixalil qizi, O. P. Aslanova	
O'zbekistonda sport sohasini digitalizatsiya qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari.....	1003
B. Y. Hamrayev	
Pedagogik akmeologiya nuqtai nazaridan o'qituvchining prognozlash faoliyati	1008
Bekmuratov Arziwbay Kojamuratovich	
Milliy ta'lim tizimini isloh qilishda timss xalqaro baholash tadqiqotining o'rni.....	1011
Darvishxo'jayev Abdurashid Abdulxakimovich	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida refleksiv tafakkurni rivojlantirish mazmuni	1015
Dostonbek Bobojonov G'ofurovich	
Maktabgacha ta'lim jarayonida rag'batlantirish tizimidan foydalanishning didaktik ahamiyati.....	1019
Umarova Mohichehra Ikromjon qizi	
Kichik maktab davrida ma'naviy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari	1023
To'laganova Mohinur Abduhakim qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari.....	1026
Maxmudov Baxodirjon Baxromjon o'g'li	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida rivojlantirish.....	1030
Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etish mazmuni	1035
Qarshibayeva Dिल्фуза Xidirbayeva	
Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida ilgari surilgan ta'limiy-axloqiy qarashlar.....	1038
Raximova Intizor Rustamovna	
Raqamli resurslar asosida ertak va she'riy matnlar bilan ishlashning innovatsion metodlari	1041
Sabirola Gullola G'ayratovna	
Феномен русскойязычной литературы Узбекистана как пространство культурной памяти и художественного самоопределения.....	1045
Чернова Татьяна Алексеевна	
Реабилитация семейных отношений при супружеских конфликтах в молодых семьях	1049
Туляганова Дильноза Улугбек кизи	

Функциональная грамотность младших школьников как залог успешного развития цифровых компетенций.....	1056
Саифназарова Алёна Александровна	
Роль системы сертификации в развитии управленческих компетенций руководителей дошкольных образовательных организаций	1062
Маматкулова Шохсанам Дилшодовна	
Individual ta’limiy marshrutni ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlari.....	1068
Isakulova N. J.	
O‘zbekistonda mustaqillikdan oldingi davrda migratsiya jarayonlarining ilmiy tahlili	1075
Berdiyeva Hilola Ilhomovna	
The Interrelationship Between Family and Society: A Systems Analysis	1078
Tursunov Mukhiddin Boltayevich	
Этапы развития теории образовательного менеджмента	1080
Бахтиёр Содикович Бердиёров	

INDIVIDUAL TA'LIMIY MARSHRUTNI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI

Isakulova N. J.

Ped. fan. dok., professor, O'zDJTU

Annotatsiya: Mazkur maqolada alohida yordamga muhtoj bolalar uchun individual ta'limiy marshrutni ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, jahon tajribasi asosida nogironligi bo'lgan bolalar ta'limini tashkil etishning minimal standartlari, davlat miqyosida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni integratsiyalash jarayonini nazorat qilish tizimining asosiy komponentlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari individual ta'limiy marshrutlarni loyihalash va joriy etishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: loyihalash bosqichlari, minimal standartlar, individual ta'limiy marshrut, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar, gospital maktab.

Abstract: This article examines the stages of designing and implementing an individual educational route for children in need of special support. Based on international experience, the minimum standards for organizing education for children with disabilities are identified, as well as the key components of the state monitoring system for the integration of children with developmental impairments. The research findings are of practical significance for the design and implementation of individual educational routes.

Key words: design stages, minimum standards, individual educational route, children with developmental impairments, hospital school.

Аннотация: В статье раскрываются этапы разработки и реализации индивидуального образовательного маршрута для детей, нуждающихся в особой поддержке. На основе мирового опыта определены минимальные стандарты организации обучения детей с инвалидностью, а также основные компоненты системы государственного контроля интеграции детей с нарушениями развития. Результаты исследования имеют практическую значимость для проектирования и внедрения индивидуальных образовательных маршрутов.

Ключевые слова: этапы проектирования, минимальные стандарты, индивидуальный образовательный маршрут, дети с нарушениями развития, гопитальная школа.

KIRISH

Alohida yordamga muhtoj bolalarga ta'lim-tarbiya berishning dunyoviy tajribasidan kelib chiqqan holda nogironligi bo'lgan bolalarni o'qitishni tashkil etishning minimal standartlari ishlab chiqilgan:

1. Turli darajadagi og'ir kamchiliklarga ega o'quvchilarni pedagogik xususiyatlarini inobatga olgan holda imkon boricha umumta'lim maktabining boshlang'ich va o'rta sinflariga kiritish zarur.
2. Agar rivojlanishdagi nuqson umumta'lim sinfiga to'liq integratsiyaga imkon bermasa, o'quvchi umumta'lim sinfiga ijtimoiy va ta'limiy asoslarga ega bo'lishi hamda qo'shimcha tarzda darsdan tashqari individual yoki guruhli davolash-korreksion mashg'ulotlar olishi mumkin.
3. Og'ir aqliy va jismoniy kamchiliklarga ega bolalar umumta'lim maktabi qoshidagi alohida sinflarda ta'lim olib, bunda bolalar tizimli ravishda sog'lom tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi mumkin. Xizmat ko'rsatish tizimi borasidagi asosiy e'tibor ma'muriyatga qulay sharoitlar yaratishga emas, balki bolalarning ta'lim-tarbiya olish imkoniyatlariga qaratiladi.



4. Individual o'quv rejaları pedagog va ota-onalar hamkorligida, o'quvchilarning integratsiyalashgan ta'lim olish ehtiyojlari hamda atrof-muhitning shart-sharoitlarini inobatga olgan holda tuziladi.
5. Ta'lim-tarbiyani tashkil etishda mustaqillik ongli ravishda shakllantiriladi.
6. O'quv jarayonining mazmuni bolaning yoshiga mos hamda integratsiyalashgan muhitda faoliyat ko'rsatish uchun zarur funksional malakalar (uy-ro'zg'or, kasbiy xizmat ko'rsatish, transport va h.k.) bilan bog'liq bo'lishi lozim.
7. Ta'lim-tarbiya jarayoni va boshqa odamlar bilan munosabatlar bolalarning integratsiyalashgan muhitda boshqa individlar bilan o'zaro aloqaga kirishishini kafolatlashi zarur ^[1].

Davlatning rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni integratsiyalashni nazorat qilish tizimi quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

1. **Yangi o'quv dasturini tasdiqlash.** O'quv dasturi o'quv jarayonining mazmuni va vazifalarini ilmiy, ijtimoiy hamda texnik amaliyot bilan bog'liq holda belgilashi, shu bilan birga har bir o'quvchi, ayniqsa, alohida ta'limiy ehtiyojlarga ega o'quvchi tomonidan fanlarni idrok etish sur'atining o'ziga xos tuzilishini inobatga olishi lozim.
2. **Mutaxassislarni rivojlantirish va tayyorlash.** Ta'limni isloh qilish jarayonini maktab o'qituvchilari, tarbiyachilar va ijtimoiy xodimlarning kasbiy ehtiyojlarini inobatga olmasdan amalga oshirib bo'lmaydi.
3. **Ta'lim-tarbiya va bolalar muassasalariga ma'murlar tayinlash.** Integratsiyalash jarayonida turli tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda zarur shart-sharoitlarni yaratish va tashkil etishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.
4. **Ta'lim tizimini baholash.** Amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining samaradorligini baholash hamda ular asosida davlat sifat standartlarini qabul qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi ^[4; 15-b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Individual ta'limiy marshrutni ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlari inklyuziv ta'lim tizimida o'quvchining individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini rejalashtirish hamda amalga oshirishni ta'minlaydi. Individual ta'limiy marshrutning to'g'ri ishlab chiqilishi va samarali amalga oshirishi o'quvchining muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi ^[2]. Quyida individual ta'limiy marshrutni ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlari batafsil bayon etiladi.

- **1-bosqich** o'quvchining hozirgi holatini tahlil qilishdan iborat. Ushbu bosqichda o'quvchining kognitiv, emosional, ijtimoiy va psixologik ehtiyojlari aniqlanadi.
- **2-bosqichda** individual ta'limiy marshrutni ishlab chiqish jarayonida o'quvchining rivojlanishi uchun aniq va o'lchab bo'ladigan maqsadlar belgilanadi. Mazkur maqsadlar o'quvchining ehtiyojlari va imkoniyatlari asosida shakllantiriladi.
- **3-bosqichda** individual ta'limiy marshrutni amalga oshirish uchun o'quvchining ehtiyojlariga mos pedagogik strategiyalar va metodlar tanlanadi. Ushbu metodlar o'quvchining o'rganish uslubi, motivatsiyasi hamda psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi lozim.
- **4-bosqichda** individual ta'limiy marshrutni ishlab chiqish jarayonida aniq ta'lim dasturi yoki rejasi shakllantiriladi. Ushbu dastur o'quvchining ehtiyojlari va belgilangan maqsadlar asosida tuziladi.
- **5-bosqichda** individual ta'limiy marshrutning muvaffaqiyatini baholash maqsadida o'quvchining rivojlanish jarayoni doimiy ravishda kuzatib boriladi. Bu jarayonda o'quvchining rivojlanish dinamikasi hamda maqsadlarga erishish darajasi tahlil qilinadi.
- **6-bosqichda** o'quvchining ehtiyojlari va rivojlanish jarayonini hisobga olgan holda ta'limiy marshrut tahrirlanadi hamda zarur hollarda yangi metodlar va strategiyalar qo'llaniladi. Bu esa o'quvchining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun ta'lim jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.
- **7-bosqichda** individual ta'limiy marshrutni amalga oshirishning yakuniy bosqichida o'quvchining erishgan natijalari baholanadi va tahlil qilinadi. Ushbu jarayonda o'quvchining o'rganishdagi yutuqlari va qiyinchiliklari chuqur o'rganiladi (1-jadval):



1-jadval: Individual ta'limiy marshrutni ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlari

Bosqichlar	Bosqichlar mazmuni	Bosqichlar jarayoni
1-bosqich	O'quvchining holatini va ehtiyojlarini aniqlash	O'quvchining hozirgi bilim va ko'nikmalarini, rivojlanish darajasini tahlil qilish. O'quvchining individual xususiyatlarini, ya'ni o'rganish uslublari (vizual, auditiv, kinestetik), psixologik holati va ijtimoiy xususiyatlarini baholash. O'quvchining qiyinchiliklari va kuchli tomonlarini aniqlash uchun diagnostik vositalardan foydalanish (testlar, anketa, intervyular)
2-bosqich	Ta'lim maqsadlarini belgilash	O'quvchining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun aniq maqsadlarni belgilash. Kognitiv, psixologik va ijtimoiy rivojlanish bo'yicha maqsadlar qo'yish. Maqsadlarning o'lchanadigan va realistik bo'lishini ta'minlash (SMART tizimi)
3-bosqich	Ta'lim strategiyasini va metodlarini tanlash	O'quvchining o'rganish uslublarini va afzalliklarini hisobga olib, ta'lim metodlarini tanlash. Yangi materiallarni etkazish usullarini ishlab chiqish (interaktiv metodlar, ko'rgazmali materiallar, guruhda ishlash). O'quvchining qiyinchiliklarini bartaraf etish uchun reabilitatsiya va psixologik metodlarni qo'llash
4-bosqich	Ta'lim dasturini shakllantirish	Ta'limning mavzulari va vaqt jadvali belgilanishi. O'quvchining individual ehtiyojlarini qondirish uchun mos o'quv materiallari, vositalar va resurslar tanlanadi. Dasturda o'quvchining ilg'or va orqada qolgan tomonlari uchun alohida yo'nalishlar va metodlar ko'zda tutiladi
5-bosqich	O'quvchilarning rivojlanishini kuzatish va baholash	Ta'lim jarayonida o'quvchining yutuqlari va muvaffaqiyatlarini kuzatish (testlar, jurnallar, ishlar). Davriy baholashlar va diagnostika yordamida o'quvchining o'zgarishini tahlil qilish. O'quvchi bilan muloqot orqali uning fikrini va hissiyotlarini tinglash, ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlarni muhokama qilish
6-bosqich	Ta'limiy marshrutni tahrirlash va moslashtirish	O'quvchilarning progressi va baholashlar asosida, ta'limiy marshrutni moslashtirish. Yangi vazifalar va maqsadlar belgilash, o'quvchining ehtiyojlariga mos ravishda o'quv dasturini yangilash. O'quvchi bilan muntazam ravishda muloqot qilib, unga kerakli yordamni ko'rsatish
7-bosqich	Yakuniy baholash va natijalar	O'quvchining maqsadlarga erishish darajasi va natijalarini umumiy baholash. Yutuqlarni va muvaffaqiyatlarni tan olish, o'quvchining ishtiyoqini oshirish. Keyingi bosqichlarga tayyorlikni baholash va zarur bo'lsa, yangi marshrutlarni rejalashtirish

Individual ta'limiy marshrutni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni o'quvchining ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Har bir bosqichda individual yondashuvni qo'llash o'quvchining muvaffaqiyatini ta'minlash va uning rivojlanishiga ko'maklashadi. Mazkur jarayon o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ta'lim tizimining samaradorligini yanada oshiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Individual ta'limiy marshrut – bu o'quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlariga mos ravishda tuziladigan o'quv reja va dasturdir. Uning asosiy maqsadi o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash hamda bilim olish jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

Misol: "Matematika" fanidan individual ta'limiy marshrut (2-jadval).

2-jadval: "Matematika" fanidan individual ta'limiy marshrut

O'quvchining diagnostikasi	
Muammo	o'quvchi jamlanmalar va fraksiyalar bilan arifmetik amallarda qiyinchilikka duch kelmoqda, ammo geometriyaga qiziqishi kuchli
Maqsad	arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash va geometriyadagi ijodiy mashqlarni chuqurlashtirish
Marshrut maqsadi va vazifalari	arifmetik ko'nikmalarni rivojlantirish; geometriya bo'yicha ijodiy vazifalarni bajarish orqali qiziqishni oshirish; mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish



Ta'limiy faoliyat rejasi			
1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta
Arifmetik amaliyotlar bo'yicha trenajyor mashqlari (masalan, soddra fraksiyalar bilan hisoblash)	Geometriya bo'yicha amaliy topshiriqlar (masalan, turli shakllarni chizish va ularning maydonini hisoblash)	Onlayn platformalarda (masalan, Khan Academy) qo'shimcha darslar	Jamlangan bilimlarni mustaqil ishda qo'llash (ijodiy topshiriq: "Qo'rg'on dizaynini loyihalash")
Ko'rsatkichlar va natijalar	arifmetik mashqlarni 90% aniqlikda bajaradi; geometriyada ijodiy fikrlash ko'nikmasini namoyon etadi; mustaqil ravishda masalalar yechadi		

Individual ta'limiy marshrutga bunday misol o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash uchun samarali instrument hisoblanadi.

Onkologiyadan davolanayotgan bolalar uchun individual ta'limiy marshrut alohida ehtiyotkorlik bilan tuziladi. Ushbu marshrut bolaning salomatlik holati, davolash jarayoni va ruhiy holatini hisobga olgan holda bilim berish va rivojlanishni ta'minlashga qaratiladi.

Misol: onkologiyadan davolanayotgan o'quvchi uchun individual ta'limiy marshrut (3-jadval):

3-jadval: Onkologiyadan davolanayotgan o'quvchi uchun individual ta'limiy marshrut

O'quvchi haqida ma'lumot				
Ismi: Saida Yoshi: 10 yosh Diagnoz: Leykoz (uzoq muddatli davolash talab etiladi)		Holati: Saida doimiy ravishda tibbiy protseduralarda ishtirok etadi, shuning uchun uzluksiz o'quv jarayonida qatnashish imkoniyati chegaralangan		
Marshrut tuzish				
Maqsadlar: a) bolaning ta'limdan uzilib qolishini oldini olish; b) bolaning ruhiy holatini qo'llab-quvvatlash uchun ijodiy va quvnoq mashg'ulotlar tashkil qilish; c) boshqa bolalar bilan ijtimoiy muloqot qilish ko'nikmasini rivojlantirish		Diyagnostika: Saidaga osonroq bo'lgan fanlar: Adabiyot va tasviriy san'at. Qiyinchilik keltirib chiqaradigan fanlar: Matematika (hisoblash amaliyotlari). Jismoniy holati: dars vaqti 30-40 minutdan oshmasligi lozim, kunlik 1-2 soatdan ortiq emas		
Darslar rejasi				
O'quv formati: onlayn yoki xonadagi uchrashuvlar		Mashg'ulotlar: asosiy fanlar bilan birga terapevtik effektga ega bo'lgan ijodiy mashg'ulotlar		
Darslar haftalik rejasi				
Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma
Adabiyot: ertak yoki qisqa hikoya o'qib muhokama qilish	Matematika: oddiy masalalar va qo'shimcha multimedia materiallari orqali mashqlar	Biologiya: tabiat haqida qiziqarli mavzular (hayvonlar hayoti)	Matematika: Geometriya elementlari (turli shakllarni chizish)	Adabiyot: Saida yoqtiradigan kitoblardan olingan parchalarni o'qish
Tasviriy san'at: rasm chizish (erkin mavzuda)	Qo'shimcha: Qo'lda yasaldigan buyumlar (masalan, qog'ozdan gul yasash)	Interaktiv o'yinlar: fan bo'yicha savol-javoblar	Musiqiy mashg'ulot: sevimli qo'shiqlarni tinglash va muhokama	Ijodiy ishlar: qo'l ishi buyumlarini namoyish etish
Qo'llab-quvvatlash choralari		Natijalarni baholash		
Psixologik qo'llab-quvvatlash: psixolog maslahatlari va bolaning o'zini erkin his qilishi uchun motivatsion mashg'ulotlar		Saida o'z salomatlik holatiga mos ravishda ta'lim olishni davom ettiradi		
Tibbiy xodimlar bilan muvofiqlashuv: darslarning soatlari va jadvali davolash jarayoniga muvofiqlashtiriladi		U ijodiy ishlar orqali o'z qobiliyatlarini rivojlantiradi		
Ota-onalar bilan aloqa: ularni bolaning ta'lim jarayoniga jalb qilish va qo'llab-quvvatlash		Ruhiy barqarorlik va o'zini e'tibor markazida his qilishga erishadi		



Mazkur ta'limiy marshrut bolaning salomatlik holatini hisobga olgan holda uning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Gospital maktabda individual ta'limiy marshrut – bu o'quvchiga kasalxona sharoitida ta'lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan maxsus reja bo'lib, u o'quvchining salomatlik holati, davolash jarayoni va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda tuziladi.

Misol: gospital maktabda individual ta'limiy marshrut (4-jadval).

4-jadval: Gospital maktabda individual ta'limiy marshrut

O'quvchi haqida ma'lumot				
Ismi: Ali Yoshi: 12 yosh Diagnoz: uzoq muddatli davolanishni talab etuvchi kasallik (masalan, qandli diabet)		Holati: Ali asosiy fanlar bo'yicha o'qishni davom ettirishga intilmoqda, lekin uning kunlik tartibi va jarrohlikka tayyorgarlik davrini hisobga olish zarur		
Marshrut tuzish				
Maqsadlar: Alining salomatlik holatini inobatga olgan holda ta'lim olish imkonini yaratish; asosiy fanlar (matematika, adabiyot, tabiiy fanlar) bo'yicha bilimlarni qo'llab-quvvatlash; uning qiziqishlarini rivojlantirish (masalan, tasviriy san'at yoki robototexnika)		Diyagnostika: Alining umumiy o'quv ko'rsatkichlari yuqori, ammo u jismoniy charchoq tufayli uzluksiz o'quv jarayonida qatnasholmaydi		
Darslar rejasi				
O'quv formati: onlayn darslar (video qo'ng'iroqlar orqali)		Mashg'ulotlar: o'quv soatlari har kuni 1-2 soat, Alining tibbiy holatiga qarab Har kuni o'qituvchi bilan shaxsiy uchrashuv (agar tibbiy ko'rsatmalar ruxsat bersa)		
Darslar haftalik rejasi				
Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma
Matematika: Sodda tenglamalar va funksiyalar	Adabiyot: "O'tkan kunlar" romani bo'yicha muhokama	Matematika: Geometriya asoslari	Fizika: Quvvat va energiya tushunchasi	Mustaqil ish: Yozma ish yoki ijodiy mashq (mavzuga qarab)
Tasviriy san'at: Tabiat manzarasini chizish	Biologiya: Hujayralarning asosiy strukturalari	Sinov testlari: Asosiy fanlar bo'yicha kichik mashqlar	Interaktiv o'yin: Robototexnika asoslari	Ortga nazar: Haftalik natijalar tahlili
Qo'llab-quvvatlash choralari		Natijalarni baholash		
Psixolog bilan ishlash: og'ir darslardan so'ng emotsional himoyani ta'minlash		Ali mustaqil ishlarni bajarishda barqaror ko'nikmaga ega bo'ladi		
Ota-onalar bilan bog'lanish: ularni o'quv jarayoniga jalb qilish		Asosiy fanlar bo'yicha bilimini saqlab qoladi		
Tibbiy xodimlar bilan maslahatlashuv: darslar jadvalini davolash rejimiga muvofiq lashtirish		Yaratuvchanlik va qiziqishlarini rivojlantiradi		

Bu misol o'quvchining salomatligini saqlash va bilim olish jarayonini uyg'unlashtirish maqsadida amalga oshiriladigan individuallashtirilgan yondashuvni aks ettiradi.

Shaxsiy onlayn profil – bu o'quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari hamda ta'lim jarayonidagi yutuqlarini aks ettiruvchi interaktiv platformadir. Inklyuziv ta'lim sharoitida ushbu profil turli qobiliyat va imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun moslashtirilgan ta'limni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Misol: shaxsiy onlayn profil tarkibi (5-jadval):



5-jadval: Shaxsiy onlayn profil tarkibi

Umumiy ma'lumotlar			
F.I.O.: Aliyeva Saida		Ta'lim shakli: Inklyuziv (jismoniy cheklov sababli modifikatsiya qilingan o'quv dasturi)	
Yoshi: 12 yosh		Davolash xususiyatlari: Saida jismoniy faoliyatni cheklash va qisqa tanaffuslarni talab qiladi	
Sinf: 6-sinf			
Individual ta'limiy reja			
Asosiy fanlar		Qo'shimcha fanlar	
Matematika: Oddiy va fraksiyalik raqamlar bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish		Tasviriy san'at va musiqa	
Adabiyot: Eng asosiy matnlarni tushunish va hikoya qilish			
Maqsadlar		o'quv dasturini boshqa tengdoshlar bilan birga o'zlashtirish; jamoada ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirish	
O'quv jarayoni monitoringi			
Yutuqlar		Matematikada so'nggi oydagi test natijasi: 80%	
Adabiyot bo'yicha eng yaxshi ijodiy ish: "Meni hayratga solgan kun"			
Qiyinchiliklar		jadval bo'yicha ishlarni to'liq bajarishda tanaffuslarga ehtiyoj bor; qiyin mavzular: geometriya va algoritmlar	
O'qituvchi tavsiyalari		qo'shimcha ko'rgazmali vositalar qo'llash; darslarda qisqa interaktiv mashg'ulotlar tashkil qilish	
Mashg'ulotlar va topshiriqlar			
Haftalik reja Matematika (30 daqiqa) Tasviriy san'at (20 daqiqa)	Dushanba	Chorshanba	Juma
	Adabiyot (20 daqiqa),	Qayta ko'rib chiqish va tahlil mashqlari	
	Geografiya (20 daqiqa)		
Mavjud materiallar		Video darslar, audio kitoblar, virtual o'yinlar	
Ommaviy mashqlar uchun platforma		Google Classroom, Quizlet	
Muloqot va aloqa			
O'qituvchi yozishmalari		Ota-ona qaydlari	Psixolog xulosasi
Saidaning tasviriy san'atga qiziqishi yuqori. Uni ijodiy topshiriqlarda faolroq jalb qilish kerak		Saida mashg'ulotdan keyin dam olish uchun qo'shimcha vaqtga ehtiyoj sezmoqda	Saidaning emotsional holati barqaror. U ijodiy mashg'ulotlarda quvnoq va faol
Natijalar va tahlil			
Maqsadlar bajarilish monitoringi		70% maqsadlar bajarilgan (matematika va adabiyot bo'yicha). musiqa ijodiy faoliyat yuqori baholangan	
Kelgusi qadamlar		geometriya mavzulari bo'yicha qo'shimcha individual darslar; qo'shma ijodiy loyihalarda ishtirokini oshirish	

Mazkur profildan foydalanishning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- barcha ishtirokchilar (o'qituvchi, ota-ona, psixolog) ta'lim jarayonini muntazam kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyati yaratiladi;
- darslar, mashg'ulotlar va natijalar yagona tizimda saqlanadi.

Shaxsiy onlayn profil inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda hamda bolalarning o'ziga xos imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Gospital maktabda bolalarning ijtimoiylashuvi ularning emotsional va ruhiy holatini yaxshilashda alohida ahamiyatga ega, chunki davolanish jarayonida bolalar jamiyatdan ma'lum darajada uzoqlashib qolishi mumkin. Shu bois hospital maktablarda ijtimoiylashuvni ta'minlash maxsus yondashuvlar va faoliyat turlarini talab etadi.

Gospital maktablar bolalarning ta'limdan orqada qolmasligi hamda o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qilishi uchun muhim hisoblanadi [3]. Ushbu muassasalar jismoniy sog'liq bilan bir qatorda emotsional va ruhiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan. Gospital maktablar ta'lim va tibbiy xizmatlarni integratsiyalashgan holda tashkil etuvchi muassasalar bo'lib, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarga individual



ta'limiy marshrutlar orqali ta'lim olish imkoniyatini taqdim etadi. Bunday maktablarning samarali faoliyat yuritishi uchun o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari va psixologlar o'rtasida uzviy hamkorlik zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamin xalqaro jamoat fondi loyihasi doirasida uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun tashkil etilgan "Mehrlil maktab" davlat ta'lim muassasasida individual ta'limiy marshrutni sinovdan o'tkazish tavsiya etiladi. Mazkur maktab O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va maktab vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan, O'zbekistonda gospital pedagogikasi yo'nalishidagi yirik loyihaning amaliy natijasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Организация режима урока в инклюзивном классе. Организация режима урока в инклюзивном классе. – 1sept.ru.
2. Рабочая программа. Рабочая программа коррекционной работы для детей с задержкой психического развития // Рабочая программа. – Образовательная социальная сеть (nsportal.ru).
3. Normatov Azizbek Muhammatrizoyevich. O'qituvchi va talabaning hamkorligini hamda ta'lim samaradorligini oshirishda ta'limdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish. – b06fdc_fa32dcd7d19e4c28aed60d1a85240c12.pdf?index=true (yandex.ru).
4. Shomaxmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta'lim: xalqaro va milliy tajribalar. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2011. – 208 b. – 183–184-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.